

2. Аптекарь С.С., Алексеев С.Б. Особенности формирования стратегического потенциала розничного торгового предприятия. // «Труд. профсоюзы. общество», июль-сентябрь 2015. № 3 (49). - с. 17.

3. Джумонов Д.С., Мамадиёров О.У. Халқаро савдо. Маърузалар матни. - Т.: ТМИ, 2013. – 3 б.

4. Швед А.В. Потенциал внешней торговли: дефиниции и подход к оценке. [Электронный ресурс]. <http://bsue.by/>

5. Nazarova G.G., Haydarov N.X. Xalqaro iqtisodiy munosabatlar. O'quv qo'llanma. - T.: TDIU, 2008.

6. <https://invexi.org/uz/press/the-foreign-trade-turnover-of-the-republic-of-uzbekistan-in-january-2023-amounted-to-5-billion-us-dollars/>

TIJORAT BANKLARINING MOLİYAVIY HOLATINI YAXSHILASH YO'LLARI

Erkinxojiyev I.I.

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
mustaqil izlanuvchisi*


Bank tizimlari moliyaviy xizmatlari samaradorligi yuqori darajada ta'minlanmaganligi, tijorat banklarida xizmatlarni hujjatlashtirish bo'yicha samarali tizimning shakllantirilmaganligi va shu bilan bog'liq ravishda tashkil etilmaganligidan kelib chiqadi. Ushbu holat tijorat banklari xizmatlarining tartibga solinishi, hujjat almashinuvi hamda mijozlarga xizmat ko'rsatish bilan bo'g'liq bo'lgan vaziyatlarda kechikishlarga olib kelishi mumkin. Bu tijorat banklarining mijozlarga ko'rsatiladigan moliyaviy xizmatlar soddaligi hamda tezkorligi pasayishiga olib kelgan holda, bank amaliyotlari samaradorligini oshirish imkoniyatini cheklashi mumkin.

Kreditlash jarayoni bank yoki banksiz moliyaviy tashkilotlar tomonidan kredit mablag'larini taqdim etish tartib-qoidalari va mexanizmlarini o'z ichiga oluvchi tizim sifatida ifodalandi. Bankning kreditlash jarayoni – bankning kreditlash muddati va mexanizmlarining o'zgarishi sifatida ifodalangan tashkiliy bosqichlar ketma-ketligi ko'rinishidagi bank kreditlarining harakati sifatida aniqlanadi, banksiz kreditlash jarayoni – bankdan tashqari kreditlash muddatlari va mexanizmlarining almashinishi sifatida ifodalangan tashkiliy bosqichlar ketma-ketligi ko'rinishidagi kreditlarning harakatidir. Bank kreditlash xizmatlari davlat, xususiyy va ustav fondida davlat ulushi bo'lgan banklar tomonidan, banksiz (bankdan tashqari) kreditlash – turli xil tashkilotlar tomonidan amalga oshiriladi. Jahon kapitallar bozorida raqobat muhitining jadal rivojlanishi natijasida aholining jamg'armalarini kredit bozoriga jalb etish dolzarblik kasb etib bormoqda. Bu borada, global darajada yetakchi bo'lgan banklar jismoniy shaxslar uchun depozit siyosatini nomoliyaviy omillar asosida shakllantirishga e'tibor qaratishmoqda. Jumladan, depozitlar doirasi qamrovini mijozlar piramidasi asosida shakllantirish, depozitlarning bankning moliyaviy natijalariga ta'sirini baholash, depozitlar hajmini aktivlar tarkibidagi ulushini yanada

optimallashtirishga qaratilgan izlanishlar olib borilayotganligini ta’kidlash lozim. Hozirgi kunda, banklarda depozit siyosatini yanada takomillashtirish birinchidan, sifat ko’rsatkichlarini aniqlashga imkon beradigan, ikkinchidan xulq-atvor iqtisodiyoti elementlarini aniqlagan holda chakana depozit amaliyotini samarali boshqarish va rivojlantirishga xizmat qiladi.

Kapitalni baholash uchun asosiy kapitalning qo’shimcha kapitalga nisbati va kapitalning yetarlilik koeffitsienti qo’llaniladi. Aktivlarni tahlil qilish aktivlar o’zgarishi tendensiyalari, ularning sifati, diversifikatsiyasi va konsentratsiyasi hamda mulk xavfsizligini o’rganadi. Bozor xavfini baholash bank mahsulotlarini tahlil qilishni, valyuta pozitsiyasini, bank daromadlarining barqarorligini va turli holatlar natijasida zaiflikni o’z ichiga oladi.

O’zbekiston Respublikasida 2023-yilda faoliyat olib borgan 35 ta bank jami qariyb 12 trln 373 mlrd so’m foyda olgan. Bu 2022-yil yakunlari bo’yicha ko’rsatkich (9 trln 993 mlrd so’m)dan qariyb 2,4 barobar ko’pdir. O’z faoliyatini 2023-yilda boshlagan uchta bank – Yangi Bank, Arex Bank va Hayot Bank, shuningdek, katta ehtimol bilan sobiq O’zagroeksportbank o’tgan yilgi faoliyatini moliyaviy zarar bilan yakunlagan. Mazkur rasmda 2024-yilda bank tizimi moliyaviy barqarorlik ko’rsatkichlari, shu jumladan bank kapitali yetarliligi, aktivlar sifati, aktiv va kapital daromadliligi, likvidliligi va boshqa bir qator ko’rsatkichlar keltirilgan (1-rasm).



1-rasm. Bank tizimining moliyaviy barqarorlik ko’rsatkichlari

Aksariyat tijorat banklarining bankrotligi inqirozli vaziyatlarni bartaraf etish yoki o’z majburiyatlarini to’lash uchun moliyalashtirish manbalari hamda zarur miqdordagi kapital va aktivlarning yetishmasligi bilan bog’liq. Bundan tashqari, banklarning moliyaviy barqarorligi investitsiya faolligini oshirishga, tadbirkorlikni rivojlantirishga va umuman iqtisodiyotning o’sishiga yordam beradi. Shu sababli, tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini ta’minlash

mamlakat iqtisodiy farovonligi va barqarorligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

Xulosa qilib aytganda tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashning nazariy asoslarini tadqiq qilish natijasida, tijorat banklarining moliyaviy barqarorligi orqali bank tizimi barqarorligiga, bank tizimi barqarorligi esa mamlakat iqtisodiy barqarorligiga xizmat qilishi nuqtai nazaridan qarash bank tizimi rivojlanishi va barqaror faoliyat yuritishiga imkon beradi. Bundan tashqari, banklarning moliyaviy barqarorligi investitsiya faolligini oshirishga, tadbirkorlikni rivojlantirishga va umuman iqtisodiyotning o'sishiga yordam beradi. Shu sababli, tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashni rivojlantirish mamlakatning iqtisodiy farovonligi va barqarorligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Shuningdek tijorat banklari boshqa moliya institutlari yoki banklari bilan hamkorlik qilish orqali raqobatbardoshlik va moliyaviy barqarorlikni oshirishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli farmoni.

2. I.G.Sadikov. Iqtisodiyotni transformatsiyalash jarayonida tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash yo'llari. Avtoreferat. Toshkent-2025y. 5-15 betlar.

3. M.Q.Abdusamatov. O'zbekiston iqtisodiyotida tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini mustahkamlash. "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali. 2025-yil, fevral. № 2-son. 332-337 betlar.

4. Уразов С. А. Устойчивость банковской системы: теоретические и методологические аспекты // Банковское дело. – Москва, 2006.

5. Billi R.M., Vredin A. Monetary Policy and Financial Stability – A simple story. Sveriges Riksbank Economic Review, 2014, vol. 2, pp. 7–22.

INVESTITSIYA PORTFELINI SHAKLLANTIRISHDA KORXONALARNING MOLIYAVIY HISOBOTLARI ASOSIDA FUNDAMENTAL TAHLIL O'TKAZISH

Sindarov Fazliddin Kaxramonovich

*TDIU huzuridagi "O'zbekiston iqtisodiyotini
rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari"
ilmiy-tadqiqot markazi mustaqil tadqiqotchisi*

Kapital bozoridan yuqori samarali investitsiya portfelini shakllantirishda rentabelligi yuqori kompaniyalarning qimmatli qog'ozlarini saralab olish muhim ahamiyatga ega. Bunda fundamental tahlilning tarkibiy qismi hisoblangan moliyaviy tahlil o'tkazib rentabelligi yuqori kompaniyalarni tanlab olish mumkin.

Kompaniyaning kelajakdagi rivojlanish istiqbollarini tahlil qilish biznes tahlilining asosiy maqsadlaridan biridir. Biroq, bu jarayon subyektiv va murakkab